

XALQARO VA RESPUBLIKA MIQIYOSIDA O'TKAZILAYOTGAN ILMIY ANJUMANLAR.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
Instituti maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Xurramova Munisa Musurmonqul qizi
Raxmatullayeva Surayyo Mansur qizi
Habibullayeva Dilnoza Danaboy qizi.*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Respublika va xalqaro miqiyosida o'tkazilayotgan ilmiy anjumanlar va ularning olib borilish tartibi haqida batafsil yoritib berilgan .

Kalit so'zlar: Standartlashtirish, xalqaro , iqtisodiyot, ilmiy , Respublika, konfrensiya .

Kirish: Ilm taraqqiy etishi uchun sarflangan investitsiyalar ortig'I bilan qaytishiga shubha yo'q.

SH.M.Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati pedagoglarini metodikalarga o'rgatish milliy markazida "Raqamli ta'lim muxitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga tasiri , Xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusida; xalqaro ilmiy-amaliy kon-frensiya 15.03.2024 yil bo'lib o'tdi.Konfrensiyada ko'plab Olim va Pedagoglarimiz ishtirok etishdi. Konfrensiyani O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim va maktab ta'lim Vazirligi o'rin bosari Voxidov Farxod Esano-vich ochib berdi . Yangi O'zbekistoni barpo etishda qaratilgan islohatlar jarayoni-da ta'lim tizimida xususan raqamli ta'limda ham muxim o'zgarishlar yuz berayot-gani va yangi taxrirda qabul qilingan konisititutsiyamiz va bundagi 33-moddasi ya'ni har kim fikirlash so'z va etiqod erkinligiga , axborotni izlash , olish va tarqa-tish huquqiga ega ekanligini , Ta'lim tizimini rivojlantirishda raqamli texnologiya-lardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylangani haqida raqamlash-gan jamiyatda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi jarayonini takomil-lashtirish ta'lim sifatini ko'tarishni eng muxim xususiyatlari haqida gapirdi. Va keyin so'z navbati O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi I.X.Ibra-gimovichga berildi. Ular ham ilmiy-amaliy konfrensiyaga muvofaqiyatlar tilagan xolda o'z fikirlarini bayon qilib o'tdi . Keyin so'z navbati birin ketin Abdulla Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot instituti rektori I.A.Abdumalikovichga va Abdulla Avloniy nomidagi Milliy tadqiqotlar instituti rektorining xorijiy maslaxatchisi Islom Xasan Maxmud Inbadoriyga va ko'plab Olim va Pedagoglarimiz bu o'tkazilgan

amaliy- il-miy konferensiya haqida o'z fikr mulohazalarini bayon qilib o'tdi. Xalqaro va Respublika miqiyosida ilmiy anjumanlar konferentsiyasi quydagi tartib bo'yicha ish olib boradi ; iqtisodiy tahlil va auditni raqamli transformatsiyasi. Auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning ustvor masalalari . Tadbirkorlik faoliyatida soliqlar hisobi va hisobotini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash raqamli iqtisodiyotda axborot tizimlarini huquqiy ,iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash .Ushbu konferensiyada ishtirok etishni xohlagan professor-o'qituvchilar ,yosh olimlar, tadqiqotchilar, va iqtidorli talabalar , ilmiy maqola va tezislarni yo'nalishlar bo'yicha tag'dim etishadilar. Ilmiy konferensiyaga taqdim etiladigan ilmiy tezislarni rasmiylashtirishga talablar ; maqolada muallifning tadqiq qilinayotgan muammoga o'z qarashlari to'liq aks etishi , aniq ilmiy xulosalari , amaliy taklif va tavsiyalari keltirilishi zarur . Konferensiya qabul qilingan har bir maqola va tezis Polshaning Index Copernicus , Yevropaning Zenodo va Open Aire , Rossiyaning Cyberleninka xalqaro bazalariga , Scientists .uz platformasiga joylashtiriladi hamda Google scholar xalqaro qidiruv tizimida indekslanadi . Har bir maqola va tezis uchun alohida DOI raqam olinadi . Konfrensiya ishtirokchilariga electron sertifikat, indekslanganlik ma'lumotnomasi , indekslangan maqola pdf varianti taqdim etiladi .Ilmiy anjuman tili ; o'zbek, rus, ingliz tillari. Respublika miqiyosida o'tkaziladigan ilmiy kanfrensiyalarda asosan bir nechta muamoli masalalar muhokama qilinadi . Ilmiy anjumanlarga turli davlatlardan mexnonlar ya'ni olim-lar, professorlar ishtirok etishadi.

Xulosa.

Bir so'z bilan xulosa qilib aytganda Xalqaro va Respublikalar miqiyosida o'tkazila-yotgan ilmiy anjumanlarda xar-hil muamoli masalalarni misol uchun anjumanda komparativistika va jahon tilshunosligining muammolari , yechimlari , strategiya-lari , tilshunoslik , adabiyotshunoslik, tajriba , innovatsiyalar, zamonaviy filologiyaning dolzarb muammolari va shunga o'xshash turli muamolar muho-kama qilinadi .

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I. A. Inson , uning huquqi va erkinliklari – oliy qadriyat . -T .; O'zbekiston 2006. 14 tom . 121-122 bet.
2. Nishanova Z.T.Mustaqil ijodiy fikirlashni rivojlantirishning psixologik asoslari .T.; 2005. 38 Bet.
3. SH.M.Mirziyoyev . Toshkent- 2020 .